

“O‘zbekgeofizika” AJ Korporativ kotibiyati.

	Shek Evgeniy Yuryevich — “O‘zbekgeofizika” AJ Sekretariati rahbari. U korporativ boshqaruv va qimmatli qog‘ozlar bozori sohasida 20 yillik tajribaga ega mutaxassis hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorini nazorat qilish sohasida tajribaga ega. Turli yillarda depozitar hisob-kitob, brokerlik operatsiyalari, aktivlarni boshqarish va korporativ boshqaruv sohalarida mas’ul lavozimlarda faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda jamiyat ustav kapitalini shakllantirish, investitsiya portfelini boshqarish, qimmatli qog‘ozlar muomalasini nazorat qilish hamda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan shug‘ullanadi. Korporativ boshqaruv sohasida bir qator malaka attestatlari va sertifikatlariga ega, jumladan: “Aktivlarni boshqarish va kapital bozori” sohasida sertifikat; Inson resurslari va sanoatni rivojlantirish assotsiatsiyasi (Yaponiya) sertifikati; Koreya iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi bo‘yicha sertifikat; ISO 37001:2016 standarti asosida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi bo‘yicha sertifikat.
	Babadjanova Dilnoza Xusnovna — “O‘zbekgeofizika” AJ korporativ sekretariati yetakchi mutaxassisi. Jamiyatda 15 yillik ish tajribasiga ega. Quyidagi attestat va sertifikatlariga ega: Korporativ menejer attestati; qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi II toifali malaka guvohnomasi; ommaviy axborot vositalarida yoritish va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha sertifikat; press-relizlar tayyorlash va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda axborot xizmatini samarali tashkil etish bo‘yicha sertifikat; “Korporativ boshqaruv amaliyoti va tamoyillari” sertifikati (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan).Geologiya-qidiruv ishlari, uglevodorodlarni qazib olish sohasi hamda davlat organlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha tajribaga ega.
	Xolmatova Feruza Hamidjon qizi — “O‘zbekgeofizika” AJ korporativ sekretariati yetakchi mutaxassisi. Jamiyatda 9 yillik ish tajribasiga ega. Auditorlik va moliyaviy tashkilotlarda ishlagan bo‘lib, korporativ hamrohlik va boshqaruv jarayonlarini nazorat qilish bilan shug‘ullangan.Quyidagi malaka va sertifikatlariga ega: Korporativ menejer attestati; “Strategiya va transformatsiyani boshqarish” sertifikati; “Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari” sertifikati; “Liderlik va korporativ madaniyat” sertifikati; “Korporativ boshqaruv amaliyoti va tamoyillari” sertifikati (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan).Davlat organlari bilan hamkorlik qilish tajribasiga ega, jumladan kuzatuv kengashlari bilan ishlash va davlat ulushi mavjud korxonalar aktivlarini boshqarishda ishtirok etgan.



Abdullayeva Umida Sayfulla qizi — “O‘zbekgeofizika” AJ muhandisi. U korporativ faoliyatni yuritish sohasida tajribaga ega bo‘lib, aksiyadorlarga dividendlarni hisoblash va to‘lash, meros huquqlarini rasmiylashtirish, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi bilan hamkorlik qilish, aksiyadorlar reyestrini yuritish va yopish, shuningdek investitsiya vositachilari bilan axborot almashinuvi kabi yo‘nalishlarda ishlagan. U O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan “Korporativ boshqaruv amaliyoti va tamoyillari” sertifikatiga ega.